

YAPON TILI TARIXI HAMDA 1DAN 10 GACHA BO'LGAN IYEROGILIF (KANJI) LARINING VUJUDGA KELISHIGA ASOS BO'LGAN KO'RINISHLARI

Muxtorjonova Durdona

O'zDJTU Sharq filologiya fakulteti

FYAP 2410- guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapon tili tarixi va uning rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot berib o'tiladi. 1 dan 10 gacha bo'lgan raqam va sonlar iyeroglif (kanji) larining kelib chiqish tarixi atroflicha yoritib beriladi. Ushbu matnda, yapon tilida foydalaniladigan raqamlar va ularning kanji yozilishi haqida ma'lumot keltirilgan. Har bir kanji raqami, qo'l harakatlariga asoslangan ko'rinishlardan kelib chiqqan. Ushbu kanjilarni to'g'ri o'rganish va ularning kelib chiqishi haqida bilish, o'quvchilar va talabalar uchun muhimdir.

Kalit so'zlar: kanji, hiragana, katakana, xitoy ieroglifi, yapon tili.

Annotation: This article provides information about the history of the Japanese language and its stages of development, focusing on the origins of the kanji characters for numbers and counting from 1 to 10. This text provides information about the numbers used in the Japanese language and their kanji representations. Each kanji number is derived from hand gestures that represent the corresponding number. Understanding these kanji correctly and knowing their origins is important for students and learners.

Keywords: kanji, hiragana, katakana, Chinese characters, Japanese language.

Аннотация: В этой статье представлена информация о истории японского языка и его этапах развития, сосредоточенная на происхождении иероглифов (канжи) для чисел и подсчета от 1 до 10. В этом тексте представлена информация о числах, используемых в японском языке, и их написании с помощью кандзи. Каждое число кандзи происходит от жестов рук, которые представляют соответствующее число. Правильное изучение этих кандзи и знание их происхождения важно для студентов и учащихся.

Ключевые слова: кандзи, хирагана, катакана, китайские иероглифы, японский язык.

Yapon tili – Yaponiyaning rasmiy davlat tili. yapon tilining genetik aloqalari, ya'ni uning u yoki bu til oilasiga mansubligi uzoq vaqt aniqlanmagan: u goh oltoy tillariga, goh avstronez tillariga mansub deb kelingan. So'nggi o'n yilliklardagi tadqiqotlar yapon tilining oltoy tillari oilasiga mansubligini isbotlamoqda. Bu til, asosan, Yaponiyada, shuningdek, Osiyo, Amerika va Yevropaning bir qancha mamlakatlari (AQSH, Kanada, Braziliya va boshqalar) da, Avstraliyada tarqalgan.

Yapon yozuvi — so'z bo'g'inli (ideografiksillabik) aralash yozuv; bunda iyerogliflar va bo'g'inli belgilar qo'shilib ketadi. Yapon tilidagi matnlarni yozishda qo'llanadi. Hozirgi Yapon yozuvi tizimida, asosan, 2 turli belgilar: so'z belgilar — iyerogliflar (yaponcha “kandzi”— xitoy yozuvi) va bo'g'inli belgilar (“kana”lar) qo'llanadi. Bugungi kunda bu tizimga yana fonemaviy belgilar — lotin alifbosi (yaponcha “romadzi” — rim yozuvi) ham kirib kelmoqda. Yapon yozuvi vertikal ustun shaklida bo'lib, belgilar yuqoridan quyiga tomon, ustunlar esa o'ngdan

chapgga qarab joylashadi. Keyingi paytlarda uning gorizontal holatda chapdan o'ngga qarab yoziladigan shakli ham qo'llanmoqda

Xitoyliklarning iyeroglifik yozuvi Yaponiyaga mil. 4—5-asrlarda kirib kela boshlagan va o'sha davr ziyolilari uchun o'rganish majburiy hisoblangan. Xitoy va yapon tillari uslubiy tuzilish jihatidan jiddiy farq qilganligidan iyeroglifik matnlarni o'qish ancha qiyin bo'lgan. Shunday bo'lsa ham, yaponlarning dastlabki yozma yodgorligi-"Kodziki" (afsona va rivoyatlar to'plami, 712y.) xitoy iyerogliflari va xitoy tili grammatikasi asosida yozilgan. Keyinchalik iyerogliflar bilan bir qatorda ularning xitoycha o'qilishi ("on") ham muayyan fonetik o'zgarishlarga uchragan holda o'zlashtiriladi: ayni paytda iyerogliflarning ma'no jihatdan mos keladigan yaponcha o'qilish shakli ("kun") ham paydo bo'ladi. Yaponiyaning o'zida ijod qilingan iyerogliflarning barchasi faqat "kun" usulida, yaponcha o'qiladi. Iyerogliflarning fonetik qo'llanishi milliy yozuvning paydo bo'lishiga imkon yaratadi. 8-asrda yaratilgan "Manyosyu" nomli asarda ba'zi iyerogliflar bo'g'inli belgi sifatida ishlatilgan. Iyerogliflar grafik ko'rinishining o'zgarishi esa 9-asrda kananing xilma-xil ko'rinishlari vujudga kelishiga sabab bo'lgan. 10-asrda esa ulardan faqat katakana va hiragana keng qo'llana boshlaydi. Har ikkala alifbodagi belgilar shaklan farq qilsada, ma'noviy (fonetik) jihatdan tengdir. Katakana bosma iyerogliflarning qisqargan shakli sifatida kelib chiqqan va asosan yangi o'zlashma so'zlarni yozish uchun qo'llanadi. Xiragana esa iyerogliflarning to'liq (qo'l) yozma shakli bo'lib, asl yaponcha so'zlarni, yordamchi so'zlar va qo'shimchalarni yozish uchun qo'llanadi.

Yuqorida aytilganidek "Kanji" bir nechta belgilardan tashkil topgan bo'lib har bir belgi o'ziga xos ma'noni bildirishi bilan o'zining kelib chiqish tarixiga ham ega bo'ladi. Ya'ni aksariyat kanjilarning belgilar aynan bir buyum yokida ko'rinishga o'xshatish orqali paydo bo'lgan. Lekin shu kunga kelib barcha kanjilarning aynan nimaga o'xshatilishi orqali vujudga kelgani hamon qorong'uligicha qolmoqda. Kanjilarning nafaqat xitoycha balki yaponcha ko'rinishi mavjud.

Masalan: **SONLAR**

1 一 (ichi) "一 "

Ushbu kanji 1 raqamining qo'l barmoqlari orqali vertikal tarzda ko'rsatilishidan kelib chiqqan.

2 二 (ni) "二 "

Ushbu kanji 2 raqamining qo'l barmoqlari orqali vertikal tarzda ko'rsatilishidan kelib chiqqan

3 三 (san) "三 "

Ushbu kanji 3 raqamining qo'l barmoqlari orqali vertikal tarzda ko'rsatilishidan kelib chiqqan.

4. 四 (yon) "四 "

Ushbu kanji 4 ta barmoqning kaftga qarata bukilgan ko'rinishidan kelib chiqqan.

5. 五 (go) "五 "

Ushbu kanji chap qo'lning 3 ta barmoqlarini gorizontal holatiga o'ng qo'lning 2 ta barmoqlari vertikal tarzda ustma-ust qo'yilishidan kelib

chiqqan.

6. ろく (roku) “六 ”

Ushbu kanji o'ng va chap qo'llarning ko'rsatkich barmoqlari yuqorini, bosh barmoqlari esa pastni ko'rsatgan holda birlashtirilgan ko'rinishdan kelib chiqqan.

7. なな (nana) “七 ”

Ushbu kanji chap qo'lning barmoqlari musht qilingan holda bosh barmoqning pastga yo'naltirilgan ko'rinishidan kelib chiqqan.

8. はち (hachi) “八 ”

Ushbu kanji chap yokida o'ng qo'lning o'rta qismdagi 3 barmoqlarining kaft tomon bukilishi, shuningdek, 2 chet tomondagi barmoqlarning quyi tomon yo'naltirilishidan kelib chiqqan.

9. きゅう (kyuu) “九 ”

Ushbu kanji o'ng yokida chap qo'llning quyi tonmon tirsak bilan egish orqali kaft qismini ham tjrsak egilgan tomon qaratish orqali yuzaga kelgan ko'rinishdan hosil bo'lgan.

10. じゅう (juu) “十 ”

Ushbu kanji vertikal tarzda 10 ta tayoqning birlashtirilgan ko'rinishidan kelib chiqqan.

Xulosa qilib aytganda, deyarli barcha kanjilarning o'ziga xos paydo bo'lish tarixi bo'lib ularni atroflicha o'rganish barcha o'quvchilar uchun zaruriy ehtiyoj hisoblanadi. Zero iyerogliflarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan ko'rinishlari, ularni hotirada saqlashga yordam beradi. Afsuski barcha iyerogliflarning ko'rinishlarining tarixiy shakllari biroz o'yg'a tortsada negizi o'zining anglatuvchi so'ziga borib taqaladi. Iyerogliflarni ko'rinishlari orqali tushuntirib o'quvchi yokida talabaga yetkazish, ularda tilga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tsujimura, Natsuko “Yapon tilshunosligiga kirish” (1996).
2. Tsujimura, Natsuko (1999) Yapon tilshunosliga bo'yicha qo'llanma.
3. www.japanese language.com
4. www.japanese language school.com
5. www.learn japanese language.com